



## XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 29-yanvar

VII-6-8-7-0-K/25

Samarqand viloyati

### Viloyat hokimligining yangilangan tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-223-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 22-moddasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashining yettinchi chaqiriq, oltinchi sessiyasi

#### QAROR QILADI:

1. Viloyat hokimining 2024-yil 27-dekabrdagi “Samarqand viloyati hokimligi boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash to‘g‘risida” 374-7-0-Q/24-son qarori tasdiqlansin.
2. Viloyat hokimligi boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 28-noyabrdagi VII-2-012-7-0-K/24-son qarorining 1-ilovasi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.
4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari F.Abilov zimmasiga yuklansin.


Kengash raisi



Sh.Negmatov

Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining  
2025-yil 29-yanvardagi  
VII-6-8-7-0-K/25 -son qaroriga  
1-ilova

## **Samarqand viloyati hokimligi boshqaruv apparatining tashkiliy TUZILMASI**



Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni – **63** nafar.

\* Viloyat hokimligi tomonidan moliyalashtirilmaydi (**3** nafar).

Izoh: Samarqand viloyati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-oktabrdagi PF-165-son Farmoniga asosan I toifali hududga kiritilgan.